



## TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG'I

2024-yil 25" DS № 1-9-6/243

Qibray tumani

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-iyundagi 210-sonli va Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-iyundagi 155-sonli buyrug'larini ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-son qarori, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-iyundagi 210-sonli hamda Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-iyundagi 155-sonli buyruqlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda universitetda manfaatlar to'qnashuviga oid huquqbazarliklarni kelib chiqish sabab-omillarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida

### BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-iyundagi 210-sonli va Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-iyundagi 155-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi buyrug'larini universitetda manfaatlar to'qnashuviga oid boshqaruv tizimiga joriy etilsin.

#### 2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan universitet miqyosidagi nazorat-reja 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlarda belgilangan vazifalarning ijrosini amalga oshirish bo'yicha universitet miqyosidagi chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Barcha prorektorlar, boshqarma va bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari hamda kafedra mudirlari:

mazkur buyruq bilan joriy etilayotgan manfaatlar to'qnashuvlarini oldini olish bo'yicha boshqaruv tizimini o'z rahbarligidagi tarkibiy bo'linmalar, ularning mas'ul xodimlari, profesor-o'qituvchilari va ishchi-xodimlari tomonidan qat'iy rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish;

manfaatlar to‘qnashuvlarini kelib chiqishini oldini olish bo‘yicha boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan asosli takliflar kiritib vazifalari yuklatilsin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (Azizzxo‘jayev) universitetda manfaatlar to‘qnashuviga oid holatlarni kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish, bu yunalishdagi tizimni takomillashtirish yuzasidan muntazam ravishda o‘rganishlarni tashkil etib, aniqlangan holatlarni kengaytirilgan rektoroldi va Ilmiy kengash yig‘ilishlarida muhokama qilib borilishini ta’minlasin.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i T.Azizzxo‘jayev ushbu buyruqda keltirilgan ma’lumotlarning hamda unga asos bo‘lgan hujjatlarning haqqoniyligi va to‘g‘riligi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Birinchi prorektor

S.Islamov



Toshkent davlat agrar universiteti rektorining  
2024 yil 25- iyundagi  
1-9-6/243 sonli buyrug‘iga ilova

**O‘zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi»  
Qonuni bo‘yicha 2024 yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar  
R Y e J A S I**

t/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar
<b>Aholini xuquqiy ongi va bilimini oshirish yo‘nalishidagi tadbirlar</b>				
1	Universitetda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan xodimlarga qonunning mazmun mohiyatini tushuntirish.	Amaliy chora tadbirlar.	2024 yil iyun	Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limi, xodimlar bilan ishslash boshqarmasi, qishloq xo‘jaligi va oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirliklari va hamkor tashkilot va idoralar.
2	Universitetda yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysinuvida yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan xolatlarni, xodimning bo‘ysinuvidagi tashkilotda o‘rindoshlik asosida ishlayotgan xolatlarni aniqlash hamda natijalarini	Axborot tahlil ma’lumotnomasi.	2024 iyul	Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limi, xodimlar bilan ishslash boshqarmasi, fakultetlar kafedralar bo‘limlar boshqarmalar rahbarlari.